

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIKNING METODOLOGIK ASOSLARI

*Nizomiy nomidagi TDPU maktabgacha ta'lism metodikasi pedagogika fanlari falsafa doktori, dotsent **Rasulxo'jayeva Madina Axmadjonovna***

*Nizomiy nomidagi TDPU maktabgacha ta'lism fakulteti talabasi
Abduraximova Charos Abduholiq qizi*

Annatotsiya. Ushbu maqolada "Maktabgacha ta'lism tashkilotida ota-onalar bilan hamkorlikning metodologik asoslari" mavzusini yoritadi. Maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotlarida ota-onalar bilan samarali hamkorlikning ahamiyati, usullari va metodologik yondashuvlari tahlil qilinadi. Ota-onalar bilan yaqin aloqalar o'mnatiш, ularga ta'lism jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish, bolaning rivojlanishi va ta'limgagi muvaffaqiyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Maqolada ota-onalar bilan hamkorlikda foydalaniladigan turli pedagogik metodlar, kommunikatsiya usullari va tashkiliy yondashuvlar ko'rsatilgan. Shuningdek, pedagoglar va ota-onalar o'rtasida samarali muloqotni tashkil etishning metodologik asoslari, o'zaro hurmat va ishonchni mustahkamlash masalalari ham muhokama qilinadi. Maqola, maktabgacha ta'lism sohasida ota-onalar bilan hamkorlikni takomillashtirishga qaratilgan muhim tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar. maktabgacha, ota-onsa, hamkorlik, maktabgacha ta'lism, tarbiyachi, samara, rivojlantirish, bola, bilim, malaka, ko'nikma, pedagog.

Kirish. Maktabgacha ta'lism tashkiloti tomon otlanayotgan farzandlarimiz bugunning baxtli chechaklari. Yorug', keng va eng zamonaviy rusmda ta'mirlangan xonalarda eng zamonaviy o'yinchoqlar bilan mashg'ul bolsa, ikkinchidan ilg'or tajribaga ega malakali pedagoglar mashg'ulotlarida o'z bilimini, bolalik dunyo qarashini rivojlantiradi. Avvallari devori suvog'idan nurab, boshiga chakki tomgan mashg'ulotxonalar-u, kosasiga sanoqli go'sht maxsuloti yo solingan yoki solinmagan yegulikni nari beri iste'mol qilib qish kunlari aqalli miriqib uslashga ham imkon bo'lмаган. Muhtaram Prezidentimizning Yangi O'zbekistonning uchinchi ming yilligi ostonasida bugungi farzandlarimiz kelajagini oldindan ko'ra bilib ularning taqdirini o'ylab maktabgacha ta'lism sohasida yangi qarorlarni ham chiqarib ham ijrosi uchun tezkorlik bilan yeng shimarib kirishgani biz pedagoglarni ham quvontirdi.

Avvalo, talim yo'nalishimiz vazirlik darajasiga ko'tarildi. Prezidentimizning 2017-yil 30-sentyabr PQ-3305 qarori asosida Ozbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lism vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi qarori barcha maktabgacha ta'lism tizimi xodimlarining yillar davomida kutgan natijasi boldi. Shuningdek, Prezidentimizning 2017-yil 9-sentyabr N-3261-son "Maktabgacha ta'lism tizimini tubdan takomillashtirish

chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari barcha islohotlarning imkoniyat eshigini ochdi.

Maktabgacha ta'lim tizimi, bolalar rivojlanishida muhim o'rin tutadi va ta'lim jarayonida pedagoglar, ota-onalar va jamiyat o'rtasidagi hamkorlikning mustahkamlanishi bolaning shaxs sifatida shakllanishida katta ahamiyatga ega. Ota-onalar bolalarning birinchi ta'lim muallimlari bo'lib, ularning maktabgacha ta'lim tashkilotida qanday rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ota-onalar bilan samarali hamkorlik o'rnatish, pedagogik jarayonni yaxshilash, bolalar rivojlanishining barcha tomonlarini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar bilan hamkorlikning metodologik asoslari bolalarning ta'lim va tarbiyasi uchun mustahkam asos yaratadi. Pedagogik jarayonlarda ota-onalar bilan hamkorlikning samarali yo'llarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining muvaffaqiyatli ishlashiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish metodologiyasi bolalar rivojlanishining har tomonlama yondashilishini ta'minlashga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili. MTT bilan ota-onalar burchlari va vazifalari, maqsadi bir-biriga o'xshaydi. MTTning asosy maqsadi bolalarni o'qitish, tarbiyalash, qarab turish va parvarish qilish jarayonida paydo bo'ladigan tomonlarning huquqlari, majburiyatlar va javobgarligini sezishlari amalga oshiruvchi ta'lim-tarbiya jarayonini olib borishdan iborat bo'lsa, ota-onsa bolalarni ma'naviy barkamol qilib shakllantirishdagi asoslarni hosil qilishda MTTdan samarali foydalanish va bola aqliy kamolotini ma'naviy kamolot bilan uyg'un holda rivojlantirishga erishishdir. Bolalarning MTT dagi hayot kechirishini tashkil etishda faol ishtirot etish.

Bolalarning jismoniy va ruhiy sog'lig'i uchun g'amxo'rlik qilish. Maktabgacha ta'lim esa ustaviga muvofiq bo'lgan zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. Bolalar hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlashga doimo g'amxo'rlik qilishdir. Bola shaxsini shakllantirish, bilimga qiziqishini rivojlantirishdir. MTTda bolaning intellektual, shaxsiy va jismoniy rivojlanishini ta'minlanadi. MTTda bolalarning sog'lig'ini nazorat qilib boriladi. Bolalarni milliy ma'naviyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtiriladi. Bolalarni turli tahdidlarga qarshi kurasha olishga tayyorlanadi. Bolalarni odobli va tartibli kiyinishga o'rgatiladi..

Metodologiya. Ushbu maqolada mavzubni yoritishda bir qancha olimlarning ilmiy izlamnishlaridan, tadqiqot natijalaridan, darsliklaridan foydalanilgan. Maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotida ota-onalar bilan hamkorlikning metodologik asoslari yangi metodlardan foydalangan holda qo'llash yoritib berilgan.

Muhokama. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ota-onalar bilan hamkorlikning metodologik asoslarini tahlil qilish, ta'lim jarayonini rivojlantirishda samarali

yondashuvlarni aniqlashga yordam beradi. Ota-onalar, bolaning ilk ta'lim jarayonidagi eng yaqin hamkori bo'lib, ularning faol ishtiroki, maktabgacha ta'lim muassasasining muvaffaqiyatli ishlashiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ota-onalar bilan hamkorlikda ba'zi muammolar ham mavjud. Masalan, ota-onalar bilan bevosita muloqot qilishda vaqt va resurslarning cheklanganligi, ba'zan ota-onalarning pedagogik jarayonlarga to'liq jalb etilmasligi yoki ularning ta'lim metodologiyasi haqida yetarlicha bilimga ega bo'lmasligi mumkin. Shuningdek, ota-onalar va pedagoglar o'rtasidagi kommunikatsiya usullari yoki yondashuvlardagi farqlar ham to'siq bo'lishi mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ota-onalar bilan birgalikda o'quv mashg'ulotlari, ijodiy ishlanmalar, madaniy tadbirlar va sport musobaqalarini tashkil etishlari mumkin. Bu esa ota-onalarni ta'lim jarayoniga yanada faol jalb qilishga yordam beradi. Ko'rinish turibdiki, farzand nafaqat oila tarbiyasi orqali kamol topadi, balki unga Davlatimiz tomonidan berilgan imkoniyatlar asosida tashkil etilgan MTT orqali ham kamol topadi. Chunki, bo'lajak kattalar ana shu kichiklar negizida tayyor bo'ladi. Bundan tashqari xalqimiz bolaparvar va o'z surriyodini jonidan ham aziz ko'rvuchi xalq. Ular farzandlarini oilasining quvonchi, ota-onasining mehr nuridan yaralgan, ya'ni Alloh ato etgan oliv ne'mat, jamiyatning hayotbaxsh hamda harakatlantiruvchi kuchi, deb biladilar. Shuningdek, farzand umr mevasi, oila faxri va quvonchi hamda davomchisi bo'lganligi uchun ham u oilaning kelajagi, baxtidir.

Natijalar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar bilan samarali hamkorlikning metodologik asoslari, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va bolalar rivojlanishining sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Ota-onalar bolalarning birinchi ta'lim muallimlari bo'lib, ularning ta'lim va tarbiyasidagi ishtiroki nafaqat bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olishda, balki ta'lim jarayonini davom ettirishda ham ahamiyatlidir. Shuningdek, ota-onalar bilan ishlashda pedagoglarning yondashuvlari va uslublari bola rivojlanishining barcha jihatlarini qamrab olishni ta'minlashi lozim. Maqolada ta'kidlanganidek, ota-onalar bilan samarali hamkorlik uchun metodologik yondashuvlar, shu jumladan, doimiy muloqot, interaktivlik, pedagogik uslublarni individual ravishda tanlash va ota-onalar bilan tajriba almashishning ahamiyati katta. Bu usullar orqali ta'lim muassasalarida ota-onalar bilan o'zaro ishonchli va samarali aloqalar o'rnatiladi, bu esa bola ta'limining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Boshqa tomondan, ota-onalar bilan hamkorlikda yuzaga keladigan ayrim muammolarni hal etish uchun pedagoglar va maktabgacha ta'lim tashkilotlari zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, ota-onalar uchun ta'lim mashg'ulotlarini o'tkazish va muloqotni kuchaytirish kabi samarali choralarini ko'rishlari zarur. Shu bilan birga, ota-onalar bilan hamkorlikda pedagoglar o'zlarining ta'lim metodlarini yaxshilash, ota-onalarni ta'lim jarayoniga yanada faol jalb qilish va ularning bilim darajasini oshirish uchun amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishlari muhimdir. Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar bilan

hamkorlikni yanada rivojlantirish, bola ta'limi va tarbiyasining sifatini oshiradi hamda jamiyatda ta'lim madaniyatini mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish lozimki, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar bilan samarali hamkorlikning metodologik asoslari bolalar rivojlanishining barcha tomonlarini qamrab olish, ta'lim jarayonini yaxshilash va jamiyatda ta'lim madaniyatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Ota-onalar bolalarning birinchi tarbiyachilari bo'lib, ularning ta'lim jarayoniga faol ishtirok etishi, bolalarining psixologik va pedagogik ehtiyojlarini aniqlashda yordam beradi. Shu sababli, pedagoglar va ota-onalar o'rtaсидagi samarali hamkorlik, bola ta'limining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Metodologik yondashuvlar, jumladan, muloqotning samarali usullari, pedagogik metodlarni individual ravishda tanlash, ota-onalar bilan tajriba almashish va interaktiv aloqalar o'rnatish orqali ta'lim jarayonini yanada yaxshilash mumkin. Ota-onalar bilan hamkorlikda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun pedagoglar va maktabgacha ta'lim tashkilotlari, texnologiyalarni qo'llash, ota-onalar uchun o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va muloqotni kuchaytirishga e'tibor qaratishlari zarur. Shu bilan birga, samarali ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish, maktabgacha ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida, ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlashga yordam beradi. Ota-onalar bilan doimiy va ochiq aloqalar o'rnatish, bolalarning ta'limi va tarbiyasini yaxshilash uchun muhimdir. Natijada, maktabgacha ta'lim muassasalari ota-onalar bilan hamkorlikni yanada rivojlantirib, bolalar rivojlanishining barcha jihatlarini qamrab olishda samarali tizimlarni yaratishda davom etishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Расулхожаева, М. А. (2012). Роль воспитателей в формировании нравственных качеств у детей старшего дошкольного возраста посредством знакомства с животным миром. Молодой ученый, (7), 314-316.
2. Расулходжаева, М. А. (2022). Коммуникативная компетентность в деятельности педагога дошкольной образовательной организации. Национальная ассоциация ученых, (80), 30-32.
3. Rasulkhujaeva, M. A. (2019). Educator's Role in Forming Moral Qualities Senior Preschool Age Children by Introducing Animal World. Eastern European Scientific Journal, (1).
4. Rasulxojayeva M.A., Sh.O.Madaminova (2024). 6-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda rivojlantiruvchi markazlarning bolalar psixologik jarayonlarini shakllantirishdagi ahamiyati. Vol. 17 no. 1 (2024): Лучшие интеллектуальные исследования | часть-17 | том-1
5. Rasulxo'jayeva M. A., Salimova A. A. (2024) Actual Problems and their Solutions in the Organization of Pedagogical Processes of Preschool Teachers. Vol. 55 (2024): Miasto Przyszłości